



1991-yildan
chiqa boshlagan

2023-yil. 1-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

2023-YIL - "INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI"



Qozoqboy YO'LDOSHEV:

GLOBAL DUNYODA ADABIY TA'LIM VAZIFASI

3-bet

Ushbu son



TILSHUNOSLIK

Inglizcha-o'zbekcha
ko'p ma'noli so'zlarning
lug'atlardagi bosh
va hosila ma'nolari
semantizatsiyasi


11
bet



TAHLIL

O'zbek tilida texnik
terminlar

15
bet



TADQIQOT

Bo'lajak o'qituvchilarda
pedagogik qobiliyatni
rivojlantirish

30
bet



АКТУАЛЬНОЕ СЛОВО ДНЯ

Алишер Навои –
великий поэт-гуманист
и государственный
деятель

51
bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2023-yil. 1-son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Gulnora MANSUROVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinsbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Shifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalidan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2023.30.01. da topshirildi. Ofset ushida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6.0. «Arial» garnituras. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqq boshlagan

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

YANGILIKLAR

Shahnoza ZIYAMUXAMEDOVA. "100 O'zbek tilshunosi" dasturiy ilovasi amalda 2

DOLZARB MAVZU

Qozoqboy YO'LDOSHEV. Global dunyoda adabiy ta'lim vazifasi 3

ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR

Klaraxon MAVLONOVA. Maktab ona tili darsliklarida matn tuzish qoidalar talqini 5

Mahliyo ELBOYEVA. Bolalar adabiyotini o'qitishda psixodiagnostik metodlarning o'ziga xosligi 7

Oqila TURAQULOVA. Adabiyot darsida "Layli va Majnun" dostonini o'rganish 9

TILSHUNOSLIK

Shaxnoza NASHIROVA. Inglizcha-o'zbekcha ko'p ma'noli so'zlarning lug'atlardagi bosh va hosila ma'nolari semantizatsiyasi 11

Madina ABDULLAZODA, S.ZIYAYEVA. Ayol va erkaklarning sotsiologik xususiyatlarini aks ettiruvchi semantik maydon 13

TAHLIL

Gulnora GULYAMOVA. O'zbek tilida texnik terminlar 15

Dilfuza TUXLIYEVA. "Lola" radifli Bobur g'azalining o'quv tahlili 16

Nilufar BOBOQULOVA. Metaforali ingliz va o'zbek maqollarining semantik tahlili 19

Mavlon BOBOXONOV. Obraz yaratishda ruhiyat tasvirlarining ahamiyati 20

Yulduz KARIMOVA. Poetik tafakkur va uning yangilanishi 22

Zulfiya KABULOVA, Zuhra KHAZRATOVA. The main concepts in media and analysis of linguoculturological features in journalistic texts 24

TARJIMASHUNOSLIK

Elmirza ERKAYEV. Nutq kompetensiyalarini shakllantirishda tarjima mashqlarining xususiyati 27

Gulrukh YUSUPOVA. Adopting differentiated instructions into EFL classes 28

TADQIQOT

Aqmaral NISANBAYEVA. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik qobiliyatni rivojlantirish 30

Dilafuz JOMARDOVA. Farmatsevtika vositalari reklama matnida apellyativ leksika 32

Muborak JO'RAYEVA. Chet til darslarida talabalarining og'zaki nutqini faollashtirishning ayrim masalalariga doir 34

Nigora SAYDALIYEVA. O'zbek tiliga yozma tarjimadagi nuqsonlar 35

Xolmo'min FAYZULLAYEV. "Dasht-u dalalarda" romanida inson va jonivor obrazlari parallelligi 38

KICHIK TADQIQOT

Dildor NURMUHAMEDOVA, Gulnora XOLMUROTOVA. Nutqiy kompetentlikda tanqidiy fikrlashning o'rni 40

E'zoza ATAMIRZAYEVA. Chet til o'qitishda "integratsiya" va "integrativ yondashuv" tushunchalarining metodik tahliliga oid ayrim mulohazalar 41

Gulalal ESHQURVATOVA. "Aliyenizm" va "ksenizm" tushunchalari tadqiqiga doir 43

Ozoda URAZOVA. Qissalarda mehnat qo'shiqlari 44

Dilfuza DJABBAROVA. Teaching English for future food specialists 46

Ma'mura RAKHIMOVA, Shahnoza JALOLOVA. Semantic feature analysis of the English modal auxiliaries 47

Sardor SURMANOV. Teaching listening skills out of classroom 49

АКТУАЛЬНОЕ СЛОВО ДНЯ

Малохатхон УСМОНОВА. Алишер Навои – великий поэт-гуманист и государственный деятель 51

МЕТОДИКА. ОПЫТ

Диляра ЗАРИПОВА. Изучение имени прилагательного с применением языка-посредника 53

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Оксана ГИБРАЛТАРСКАЯ. Разработка практических занятий в условиях кредитно-модульного обучения 57

Умида ГАФУРОВА. Эмоциональный аспект высказывания в синтаксисе при изучении русского языка как иностранного 58

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Евгений МАЛИНОВСКИЙ, Ирина ТКЕБУЧАВА. Из истории изучения фразеологии в русском языкознании 60

Муштарий ОРТИКОВА. Понятие языковой картины мира в лингвистике 62

СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Дильдархон ХАШИМОВА. Изучение соматических фразеологизмов как лагун в разносистемных языках 64

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Дмитрий ПУПОНИН. Проблема театральности в романе-фэнтези Генри Лайона Олди «Герой должен быть один» 68

ПРОБЛЕМЫ. ПОИСКИ. РЕШЕНИЯ

Насиба НИЯЗОВА. О типологии монологической речи в лингвистической и научно-методической литературе 72

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Гулаим УРУМБАЕВА, Салават АТАЖАНОВ. Синтаксические трансформации в русском переводе повести Ж.Аймураева «Сердце сироты» 75

Виктория ГУДЗИНА. Осмысление категории счастья в поэзии Анны Ахматовой 77

Татьяна ЮН, Ирина ДОРНИНА. Фразеологический повтор и его функциональная значимость 80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

muhokama qilingan asarlarni bolalarga tavsiya etgisi kelmaydi. Holbuki, o'qituvchiga chaynalgan bo'lib tuyulgan asar o'quvchi tomonidan endi ilk bor kashf etiladi. Kitob o'zgarmagani bilan uning iste'molchisi yangilanayotganini hisobga olish kerak. Badiiy asar o'qishning ahamiyatini ta'minlaydigan ikkinchi hal qiluvchi jihat: badiiy asar o'quvchida o'zgani his etish, birovga tuyg'udosh bo'lish fazilatini shakllantiradi. Bu ilmiy tilda empatiya deyiladi. Globallashib borayotgan hozirgi shoshqin dunyoda yashayotgan odamlarda aynan empatiya tuyg'usi kamayib bormoqdaki, bu yetishmovchilikni badiiy kitob o'qish orqaligina to'ldirish mumkin bo'ladi.

Ayrimlar kitob o'qishning o'rnini kino yoki teleko'rsatuv bilan qoplash mumkin, deb o'ylashadi. Holbuki, kino, video yoki teleko'rsatuv tomosha qilayotgan kishi boshqa bir odam bilan bo'layotgan voqealarning shunchaki kuzatuvchisi bo'ladi, xolos. Kitob o'qilganda esa odam qanchadir harf va tinish belgilari yordamida o'ziga yangi bir dunyo ochib oladi, bu dunyosiga turli odamlarni joylashtirib, ularga xilma-xil taqdir beradi. Odamning o'zi tomonidan so'zlar yordamida yaratilgan obrazlar qaysidir jihatlari bilan uni ma'lum darajada o'zgartiradi ham. Kitob odamga u yolg'iz emasligini, atrofida ham o'zi kabi insonlar borligini, ularni ham hisobga olib ya-

shash kerakligini o'rgatadi. Bu holat odamni faqat o'zini o'ylab, o'zidan boshqa bilan ishi bo'lmaydigan o'zchi (xudbin) kimsaga aylanishdan saqlab qoladi.

Bundan o'ttiz-qirq yillar oldin odamlar axborot yetishmasligidan nolishardi. Endilikda bashariyat axborot to'ri ichida qoldi. Ochundagi barcha narsani bilguvchi "Google"ning xodimi Erik Shmidtning aytishicha, insoniyat o'zining ibtidosidan to 2003- yilga qadar bo'lgan davrda qancha axborot dunyoga keltirgan bo'lsa, hozir har ikki kunda shuncha axborot yaratilayotgan ekan².

Endilikda axborotlar bosimi ostida qolgan odam tuyg'u yetishmovchiligidan qiynalmoqda. Badiiy asar uni o'qigan odamga ham axborot beradi, ham uni boshqa insonlar, ularning taqdiri, ruhiy dunyosi, kechinmalariga yaqinlashtirib, tuyg'ulantiradi. Ko'rkam adabiyot bugunni ko'rsatgani singari juda uzoq o'tmishda yashab o'tgan va necha yuz yilliklardan so'ng dunyoga keladigan odamlar bilan ham oshno qiladi.

Xullas, tobora globallashib borayotgan odam zotiga yuksak ma'naviy sifatlar, nozik tuyg'ular, o'zganing holatini his qilish singari ezgu sifatlarni badiiy adabiyotgina bera oladi. Odamni badiiy adabiyotga oshno qilish esa adabiy ta'lim sog'lom pedagogik-psixologik asoslarda yo'lga qo'yilgandagina samara keltiradi.

1. <https://www.nur.kz/1781425-cto-takoe-globalizacia-prostymi-slovami-ee-vlianie-i-posledstvia.html>

2. <http://www.adme.ru/tvorchestvo-pisateli/pochemu-nashe-budushee-zavisit-ot-chteniya-579605/>

Ilg'or pedagogik texnologiyalar



Klaraxon MAVLONOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

MAKTAB ONA TILI DARSlikLARIDA MATN TUZISH QOIDALARI TALQINI

Umumiy o'rta ta'limda o'zbek tilini o'qitish, o'quvchilarning matn yaratish bilan bog'liq nutqiy va lingvistik qobiliyatlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurini o'stirish masalalari M.Rixsiyeva, N.I.Bekniyozova kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ammo bugungi kungacha ona tili fanidan sinflar kesimida uzviylik va izchillik tamoyillari asosida matn tuzilishini o'rgatish mavzusida ilmiy tadqiqot olib borilmagan. Biz quyida 8-sinfda matn tuzilishini o'rganishga doir qoidalar mazmuni xususida so'z yuritimiz.

8-sinf ona tili darslarida, quyi sinflar bilan uzluksizlik va uzviylik prinsiplariga amal qilgan holda, matn tuzilishini o'rganish saboqlari davom ettiriladi. 8-sinf "Ona tili" darsligida [1] berilganiga ko'ra, bu sinfda, asosan,

sodda gap sintaksisi o'rganiladi. Ma'lumki, sodda gap morfologiyasiz mavjud bo'lmaydi: morfologiyaga doir bir necha tushunchalar yodga olinadi. Aytmoqchimizki, 7-sinfda morfologiya bilan bog'liq tarzda tanishilgan matniy qoidalar o'quv yili boshida takrorlanadi, ayrimlari kengaytiriladi, "zaiflashgan" malakalar turli sintaktik tushunchalarni o'rganish orqali yoki ular bilan bog'lanmagan holda bajariladigan mashqlar yordamida yil davomida tiklanib boriladi.

M.P.Selikova va M.T.Baranovning malaka hosil bo'lishi haqidagi quyidagi fikrlari e'tiborga loyiq: "... har bir malaka muayyan turdagi mashqlar yordamida shakllanadi. Analitik mashqlar, asosan, so'z birikmalarini, gaplarni ularning semantik va struktur alomatlariga

muvofigq mashqaqqatli va mufassal tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi. Matn va uning birliklari belgilarini aniqlashni ko'zda tutib, ta'lim oluvchining lingvistik kompetensiyasini ta'minlaydi" [2: 21–22].

Maktab grammatika kursi lingvistik konsepsiyasi yaxlit matndagi sintaktik birliklarning dolzarb bo'linishini o'z ichiga oladigan an'anaviy sintaksis bilan mustahkam aloqani saqlagan holda til hodisalarini tahlil qilishning struktur-semantik prinsipiga asoslanadi. Kursning metodik ta'minotidan maqsad til kompetensiyasini shakllantirish uchun lingvistik materialni strukturalash va o'qituvchiga o'zining kasbiy faoliyatida joriy etish mumkin bo'lgan qo'shimcha bilimlar berishdan iborat [2: 8].

8-sinfda matn tuzilishiga doir qoidalarni takrorlash, malakalarni tiklash saboqlari quyidagi tarzda amalga oshiriladi: 1) o'quv yili boshida takrorlash; 2) mashqlar orqali sintaksisga oid tushunchalar bilan bog'langan yoki bog'lanmagan holda, ba'zan darslikda berilgan mashq shartlariga ko'ra, matniy qoidalarni eslash, kengaytirish va chuqurlashtirish; 3) darslikdagi inshoga doir ma'lumotlarning matn bilan bog'lash mumkin bo'lganlari asosida matniy qoidalarni eslash, kengaytirish va chuqurlashtirish; 4) sintaksisga oid mavzularni o'qitish munosabati bilan matn tuzilishiga doir qoidalarni eslash, kengaytirish va chuqurlashtirish.

8-sinf ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda yangi matniy qoidalar o'rganiladi.

Quyida 5–7-sinflarda o'rganilgan matn tuzilishi qoidalarini takrorlash, ko'nikma va malakalarni tiklab borishga doir masalalarni alohida-alohida ko'rib chiqamiz:

1. O'quv yili boshida 8-sinf "Ona tili" darsligida berilishicha, so'z turkumlari, jumladan, olmosh turlari, yordamchi so'zlar, modal so'zlarni takrorlashga oid mashqlar keltiriladi. Ot so'z turkumi sirasida atoqli otlarni, olmoshlar munosabati bilan matnda gaplarning o'zaro olmoshli bog'lanishini, bog'lovchilar, so'z-yuklamalar, modal so'zlarning gaplarni o'zaro bog'lanishidagi vazifalarini takrorlash mumkin. Shu maqsadda ularning har biri bo'yicha savollar, bir-ikkita dan mashq havola qilish lozim bo'ladi.

2. Darslikda tavsiya etilgan mashqlar orqali, sintaksisga oid tushunchalar bilan bog'lanmagan holda, darslikda berilgan mashq shartlariga ko'ra, ba'zan matniy qoidalarni eslash, kengaytirish va chuqurlashtirish saboqlari amalga oshiriladi. Ayrim mashqlar, o'zi alohida yo'nalish sifatida, matn tuzilishini o'rganishga qaratilgan holatlarda shu mashqlarda ko'zda tutilgan matn tuzilishi qoidalari eslatiladi yoki unutilayotgan malakalar tiklanadi. Ayrim mashqlar yaxshi o'zlashtirilgan qoidani takrorlash uchun emas, balki malakani tiklash uchun xizmat qiladi. Matn tuzilishiga doir ushbu usuldagi mashq va topshiriqlar sintaksis mavzularini o'tish jarayonlariga qo'shib yuborilgan. Bundan tashqari, darslikda matnni o'qib, imloviy, uslubiy, so'z ishlatish bilan bog'liq xatolarni aniqlash va tuzatish talab etiladigan mashqlar ko'p. Ushbu xildagi mashqlarning aksariyat qismi o'tilayotgan mavzular (sintaktik tushunchalar) bilan bog'lanmaydi.

O'qituvchi mashq shartiga, uzluksizlik tamoyiliga muvofiq, matniy tushunchalarni eslash va kengaytirishga qaratilgan topshiriqlarni kiritadi. Ayni paytda berilgan matn tuzish vazifasi matniy bilimni qo'llashni talab etish orqali aniqlik sari yo'naltirish, shu orqali yaratiladigan matnlarning tuzilish jihatidan sifatli chiqishini mo'ljallash, matn tuzish jarayoniga aniq vazifa qo'ygan holda yondashish imkoniyatini beradi.

3. Inshoga doir bilimlarni (mavzularni) o'rganish va ularni mustahkamlash, vaqt-vaqti bilan xotirlash jarayonida chuqurlashtirgan holda ayrim matniy tushunchalarni takrorlash 8-sinfda matn tuzilishiga xos bilim, ko'nikma va malakalar ustidagi ishlarga keng yo'l ochadi. 8-sinf "Ona tili" darsligida insho bo'yicha talay ma'lumotlar bayon qilinadi: ushbu ma'lumotlar qoidalarga aralashtirilib lingvistik matn ko'rinishida berilgan.

4. Sintaksis mavzulari bilan bog'lab takrorlash quyidagi mazmunda bo'ladi: matn qismlarida fe'l kesimning shaklan uzviyligi (Kesim. Fe'l kesim va ot kesim. 37-dars); eganing keyingi gaplarda tushib qolishi (Egali va egasiz gap. 48-dars); to'liq va to'liqsiz gaplar. 74-dars); matnga doir reja tuzish (Insho rejasi. 13-dars); matnga epigraf tanlash (Inshoga epigraf tanlash. 17-dars).

8-sinfda matn tuzilishi bilan bog'liq quyidagi yangi qoidalarni o'rganish rejalashtiriladi:

1) yaxlit matnning dastlabki qismi kirish ekanligi; 2) tasvir-matn qismlarining ichki tuzilishi: birinchi va oxirgi gap, asosiy qism, asosiy qismda gaplarning parallel bog'lanishi, zid ma'noli so'zlarning qo'llanishi (antiteza); 3) rivoya-matn qismlarining ichki tuzilishi: birinchi va oxirgi gap; 4) muhokama-matn qismlarining ichki tuzilishi: birinchi va oxirgi gap; 5) 91-dars. Kiritmalar (Kirish so'z) 124-matnda kiritma gap, unda ohang hamda tinish belgilari; 6) matnda so'z, bog'lovchi so'zlar takrori (anafora), kesim takrori (epifora); 7) matnda atov gap, so'z-gaplar (49-dars. Atov gap).

Quyida ushbu jihatlarni alohida-alohida ko'rib chiqamiz:

1. Matnning dastlabki qismi barcha qismlar uchun umumiy sanaluvchi kirish qism bo'lib, bu qismda so'z yuritilayotgan mavzuning umumiy tavsifi, dolzarbligi bayon etiladi. Keyingi asosiy qismda muallifning mavzu doirasidagi asosiy fikri, dalillari keltiriladi. Fikr va dalillar izchillikda, ketma-ketlikda, bir necha qismlarga bo'lib ifoda etiladi. So'nggi xulosa qismi esa, aytib o'tilganlarga xulosa yasash, yechim, takliflar berish asosida yaratiladi.

2. Tasvir-matn qismlarining ichki tuzilishi: asosiy qism, birinchi va oxirgi gaplari o'ziga xos bo'ladi. Asosiy qismda gaplarning parallel bog'lanishi; zid ma'noli so'zlarni qo'llash (antiteza) ko'p uchraydi.

Tasvir-matnning qismlari (abzaslar) quyidagi mazmundagi gap yoki gaplardan boshlanadi: biror asar qahramoni, o'rin-joy, narsa-buyumni ma'lum qilish mazmunidagi gap; bosh mavzu orqali ifodalangan obyekt, tasvir predmetining biror qismini (jihatini) ma'lum qiluvchi gap; o'rin ma'nosini ifodalovchi so'z shakllari va ko'makchili birikmalar bilan boshlangan gaplar.

“Yaypan ko'chalari keng, lapkasi, oto'yini bor, tollarda bedana, ko'cha bo'yi va bozorboshidagi do'konlarda kaklik sayraydigan obod qishloq edi” (A.Q.) gapi ekspozitsiyani eslatadi [3: 86].

3. Rivoya-matn qismlarining ichki tuzilishi: birinchi va oxirgi gapi ham o'ziga xos. Masalan, rivoya-matnda har bir abzas quyidagi mazmundagi gap yoki gaplardan boshlanadi: biror ish-harakat tufayli yuz bergan holatni ifodalovchi gap; biror ish-harakatni ifodalovchi gap (yoki gaplar); ish-harakatning payti, sababi yoki maqsadini ko'rsatuvchi gap; avvalgi ish-harakatlarning natijasizligini ta'kidlovchi gap; avvalgi harakatlar yuzasidan chiqarilgan xulosa-gap; avvalgi ish-harakat-holatlardan taajjubni ifodalovchi gap; biror taraddudga ishora qiluvchi gap; manzil va uning tasviridan darak beruvchi gap; portret tasviri (asar qahramonining asosiy fazilati); harakatdan to'xtash, biror holatning davom etmaganligi mazmunidagi gap; xabar va unga munosabatni anglatuvchi gap; to'siqsizlik mazmunidagi gap; istak mazmunidagi gap va hokazo [3: 84].

Rivoya-matnning asosiy qismida ketma-ket, izchil bajarilgan harakatlar bayon qilinadi. Rivoya-matnning

qismlarida, ko'pincha, xulosa gap bo'lmaydi: oxirgi bajarilgan ish-harakat bilan yakunlanadi.

4. Muhokama-matn qismlarining ichki tuzilishi: asosiy qism, birinchi va oxirgi gap yuzasidan tegishli ma'lumotlarni bayon qilishga mo'ljallanadi.

5. Kirish so'z va kiritma birikmalar gapni gapga, ba'zan matn qismlarini o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi.

6. Matnda so'z, bog'lovchi so'zlar takrori (anafora), kesim takrori (epifora) gapni gapga bog'lash usullaridan birini ifoda etadi.

7. Matnda atov gap, so'z-gaplar (49-dars. Atov gap).

Xullas, 8-sinfda matn tuzilishi bilan bog'lab o'rganish mumkin bo'lgan asosiy til birliklari yuqorida bayon qilingan tushunchalardan iborat bo'lib, ular asosida qoidalar chiqarish imkoniyatlari kengayadi. Ushbu qoidalar o'quvchilarda dastlab matniy, pirovardida lingvistik kompetensiyani shakllantiradi. Bu qoidalarga amal qilib tashkil etiladigan tahliliy mashq turlari tilning ma'no va tuzilish boyligini egallash, ya'ni matndan ko'rish, anglash, qo'llash orqali mantiqli, ta'sirli nutqni his etish uquvini hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ona tili: O'rta maktablarning 8-sinfi uchun darslik / M.Qodirov, H.Ne'matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev. To'rtinchi nashr. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019.

2. Целикова М.П. Развитие аналитических способностей учащихся при изучении синтаксиса в условиях непрерывного образования. Автореф. дис. ... докт. пед. наук. – Москва, 2011.

3. Yo'ldoshev R., Rixsiyeva M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.

Mahliyo ELBOYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti stajor-o'qituvchisi

BOLALAR ADABIYOTINI O'QITISHDA PSIXODIAGNOSTIK METODLARNING O'ZIGA XOSLIGI

Adabiyotni, xususan, bolalar adabiyotini o'qitishda zamonaviy yangi metodlardan foydalanish bugungi kunning qat'iy talabidir. Pedagoglar bolada mantiqiy, ijodiy, tanqidiy fikrlashni shakllantirish, qobiliyatini yuzaga chiqarish orqali uning kelajakda qanday kasb egasi bo'lishini o'zi mustaqil hal qilishiga zamin yarata-di. Umuman, bolaning bilim olishi uchta asosiy komponentdan iborat:

1) intellektual muammolarni hal qilishda faollik – bilimga qiziqish;

2) kattalar yordamiga moyillik;

3) muammolarni yechishning o'rganilgan yangi mantiqiy usullarini shakllantirish [1: 83–87].

Shu nuqtayi nazardan, bolalar adabiyotiga psixodiagnostik metodlardan foydalanish usulini olib kirish ta'lim-tarbiya jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolaning o'ziga xos psixologik xususiyatlari, aqliy qobiliyatini hi-

sobga olgan holda, psixodiagnostik metodlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. O'qituvchi ta'lim-tarbiyadagi qiyinchiliklarning qanday paydo bo'lishini tushunishi uchun, avvalo, bolaning ruhiy rivojlanishiga xos asosiy qonuniyatlarni bilishi va turli ruhiy holatlarning psixologik diagnostika metodlarini egallagan bo'lishi zarur. O'qituvchining bolalar bilan ishlashida psixodiagnostik tadqiqot, doimiy kuzatish jarayonida olingan natijalardan qanchalik to'g'ri foydalana olishi ham muhim hisoblanadi. Psixodiagnostik metodlar orqali bolalar adabiyoti ijtimoiy ong shakli sifatida bolalarning borliqqa qarashlarini, asar voqealarini baholashdagi bilimi, estetik didini ifodalaydi.

Bolalar adabiyoti tarbiya quroli sifatida kichkintoylarga bilim berish vazifasini bajaradi, ularning qiziqish doirasini kengaytiradi. Bolalar adabiyotining bosh xususiyati ham ana shunda, ya'ni narsa-hodisalarga bolalar